

SURUNKALI VIRUSLI GEPATIT B VA C BILAN OG‘RIGAN BEMORLARDA PARODONTITNI DAVOLASH VA PROFILAKTIKA QILISHDA KOMPLEKS IMMUNOMODULYATOR TERAPIYANING KLINIK SAMARADORLIGI

Ismoilov Axrorjon Anvarjon o‘g‘li

Sadriyev Nizom Najmiddinovich

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

Annotatsiya

Mazkur tezis surunkali virusli hepatit fonida kechuvchi parodontitni davolashda kompleks, patogenetik asoslangan immunomodulyator yondashuv samaradorligini baholashga bag‘ishlangan. Klinik, immunologik va biokimyoviy ko‘rsatkichlar dinamikasi asosida ishlab chiqilgan davolash sxemasining ustunliklari asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: parodontit, immunomodulyator terapiya, antioksidantlar, klinik indekslar, hepatit B va C

Surunkali virusli hepatit fonida kechuvchi parodontitni davolash murakkab klinik muammo hisoblanadi, chunki ushbu bemorlarda parodont to‘qimalarining zararlanishi faqat mahalliy omillar bilan emas, balki butun organizm miqyosidagi immuno-metabolik buzilishlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Virusli hepatitlarda jigar funksiyasining pasayishi, detoksikatsiya jarayonlarining buzilishi, oksidativ stressning kuchayishi va immun tizim disbalansi parodont to‘qimalarida yallig‘lanish jarayonlarining surunkali va rezistent kechishiga olib keladi. Shu sababli faqatgina mahalliy stomatologik muolajalar (professional gigiyena, kuretaj, antiseptik ishlovlar) yetarli klinik samarani ta‘minlamaydi.

Mazkur tadqiqot doirasida surunkali virusli hepatitli bemorlarda parodontitni davolash uchun immunomodulyatorlar, yallig‘lanishga qarshi va antioksidant preparatlarni o‘z ichiga olgan kompleks davolash sxemasi ishlab chiqildi. Ushbu yondashuv kasallikning patogeneziga bevosita ta‘sir etib, immun javobni me‘yorlashtirish, erkin

radikallar hosil bo'lishini kamaytirish hamda parodont to'qimalarida metabolik jarayonlarni tiklashga qaratildi.

Davolash samaradorligi klinik jihatdan PMA (Papillary-Marginal-Alveolyar), SBI (Sulcus Bleeding Index) va CPI (Community Periodontal Index) indeksleri yordamida baholandi. Kompleks terapiyadan so'ng ushbu indekslarning statistik jihatdan ishonchli pasayishi parodont to'qimalarida yallig'lanish jarayonlarining susayganligini, qonash va infiltratsiyaning kamayganligini hamda periodontal holatning barqarorlashganligini ko'rsatdi. Bu esa qo'llanilgan davolash usulining yuqori klinik samaradorligidan dalolat beradi.

Biokimyoviy ko'rsatkichlar tahlili natijasida gamma-glutamilttransferaza (GGT) va ornitin-dekarboksilaza (ODK) fermentlari darajasining normallasuvi aniqlandi. Mazkur fermentlarning me'yoriy ko'rsatkichlarga yaqinlashuvi parodont to'qimalarida metabolik jarayonlarning faollashganligi, hujayra proliferatsiyasi va regeneratsiya mexanizmlarining tiklanganligini ko'rsatadi. Bu holat kompleks terapiyaning to'qima darajasida ijobiy ta'sir ko'rsatganini tasdiqlaydi.

Immunologik tekshiruvlar natijalari davolash jarayonida proinflamator sitokinlar (jumladan, IL-1 β , TNF- α) darajasining pasayishi va sekretor immunoglobulin A (sIgA) ko'rsatkichlarining oshishini ko'rsatdi. Ushbu o'zgarishlar mahalliy immunitetning mustahkamlanishi, yallig'lanish reaksiyalarining nazoratga olingani va og'iz bo'shlig'i shilliq qavati himoya mexanizmlarining barqarorlashganligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, oksidativ stress ko'rsatkichlarining kamayishi va antioksidant tizim faolligining oshishi parodont to'qimalarining regenerativ salohiyatini kuchaytirib, kasallikning qaytalanish xavfini kamaytirishga xizmat qildi. Bu natijalar qo'llanilgan immunomodulyator va antioksidant terapiyaning nafaqat simptomatik, balki patogenetik jihatdan asoslangan yondashuv ekanligini ko'rsatadi.

Xulosa

Immunomodulyator, yallig‘lanishga qarshi va antioksidant terapiyani o‘z ichiga olgan kompleks davolash surunkali virusli gepatitli bemorlarda parodontitni davolashda yuqori klinik, immunologik va biokimyoviy samaradorlikka ega ekanligi aniqlandi. Ushbu davolash usuli parodont to‘qimalarida yallig‘lanish jarayonlarini susaytirish, mahalliy immunitetni barqarorlashtirish va metabolik jarayonlarni tiklashga imkon beradi. Shu bois mazkur kompleks davolash sxemasini amaliy stomatologik amaliyotga joriy etish ilmiy va klinik jihatdan maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Ebersole J.L., Kirakodu S.S. Systemic immunity in periodontal disease. *J Oral Microbiology*, 2021.
2. Bui F.Q. et al. Cytokines in periodontal disease. *Frontiers in Immunology*, 2019.
3. Tonetti M.S. et al. Classification of periodontitis. *Journal of Periodontology*, 2018.
4. World Health Organization. *Global Hepatitis Report*, 2021.
5. Kinane D. et al. Periodontal diseases. *Nature Reviews Disease Primers*, 2017.